



ADABIYOT DARSLARIDA,O'QUVCHILAR FAOLLIGINI OSHIRISHDA "ASSESSMENT" METODINING AHAMIYATI

Rahimova Feruza

*Xiva tumanidagi 10-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabining
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*


Adabiyot fanidan takomillashtirilgan DTS da ko'rsatilgan o'quvchining sifatlari: badiiy asarni o'qish mobaynida unga hissiy yondashish,sezimlar,tuyg'ular nozikligi hamda boyligiga erishish; badiiy asar muallifining tuyg'ularini,uning qahramonlari sezimlarini his etish; adabiy til boylıklaridan ravon va savodli foydalanish ko'nikmalarini egallashdan iboratdir.

Shu sababli noan'anaviy darslarni tashkil qilish, o'quvchilar faolligini oshishiga, mustaqil fikrlash malakalarini rivojlanishiga, hamkorlikda ishlash ko'nikmalarini oshishiga xizmat qiladi.

"Assesment" metodi o'quvchilarning bilimini chuqur tahlil qilishga va baholashga yordam beradi. "Assesment" inglizcha so'z bo'lib "baho","baholash" ma'nolarini bildiradi. Ushbu texnologiya o'quv jarayonini mazmunli amalga oshiradi. O'qituvchi jarayonni o'quvchining o'rganishi orqali boshqaradi.

Bu metodni biron bir badiiy asarni o'rganib bo'lgach , asarni tahlil qilish darslarida qo'llasah, ijobiy samara beradi.Masalan,Asqad Muxtorning "Chinor"romanidagi Akbarali timsolini "Assesment" metodi asosida tahlil qilish.O'quvchilar daftar sahifasini yoki qag'ozni to'rt qismga ajratib oladilar.

Test	Muammoli vaziyat:Asar qahramoniga tavsiya
U"bersang-yeyman,ursang-o'laman"deydigan odamlar xilidan emas.Bu fikrlar kim haqida? A)Akbarali B)Hadya C)Abdusamad D)Ochil buva Ochil buva kimni mo'rt bargga o'xshatadi? A)Azimjonni B)Bektemirni C)Akbaralini D)Sharofat xolani	Akbarali taqdirning shafqatsiz sinoviga duch keldi.Bir lahzalik ikkilanish uni bir umrlik azobga soldi.U Bektemirga yordam berishi lozim edi.Ammo bunday bo'lmadi.Uning keying hayoti azob-uqubatga aylandi. Lekin u keying hayotini yana izga solsa bo'lar edi.Onasi va Ochil buvaning maslahatiga amal qilib, Shodasoylek hamqishloqlaridan uzr so'rashi ke rak edi. U Bektemirni urmadi,yoki bo'g'madi.Bor-yo'g'i unga hech narsa qilmadi.Hamqishloqlari,albatta uni tushungan va kechirgan bo'lishardi.Chunki o'z xatosini tan olish ham jasoratdir.
Simptomi (tashqi belgilari)Asar davomida qahramonning tashqi belgilari	Amaliy ko'nikma:O'quvchining asar tahlili asosida chiqargan xulosasi
Akbaralining tovushi o'ziga ham allaqayoqlardan eshitilgandek bo'ldi.Qayoqqa ketayotgani ni o'zi ham bilmasdan,qoqilasurina qochar edi. U negadir birdan darmonsizlandi,tamog'i xirillab,ovozi chiqmay qoldi...Qochish kerak ,endi qochish kerak!	Hayot insonni turli qiyinchiliklarga ro'baro' qiladi.Yordamga muhtoj odamlarga yelkadosh bo'lmoq lozim.Keyingi pushaymon-o'zingga dushman.Xatolardan to'g'ri xulosa chiqarish kerak.





Demak, o'quvchilar bu metoddan foydalanish uchun romanni chuqur o'qib-o'rganishi, qahramonning taqdiridan to'la boxabar bo'lishi zarur. Asar qahramoni ga tavsiya berish va asar tahlili asosida xulosa chiqarish qismida, mustaqil fikrlash ga o'rganadi, dunyoqarashi kengayadi. Eng muhimi mustaqil qaror qabul qilib, o'z fikrini asoslay oladi.